

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI
RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDAGI QARORLAR
MOHIYATI

Rajaboyev Sh.Sh- SamISI “Axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti

Ziyodullayev Fattohbek Vohidjon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlar mohiyati haqida so‘z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о природе принятия решений по развитию информационно-коммуникационных технологий.

Abstract: This article talks about the nature of decisions on the development of information and communication technologies.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Elektron hukumat, Axborot xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish.

Ключевые слова: Информационные и коммуникационные технологии, Электронное правительство, Обеспечение информационной безопасности, Информационные технологии Республики Узбекистан, Развитие информационных технологий и коммуникаций.

Keywords: Information and communication technologies, Electronic government, Ensuring information security, Information technologies of the Republic of Uzbekistan, Development of information technologies and communications.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2022-yil 24-dekabrdagi PF-269-son Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi tizimida Raqamli texnologiyalar vazirligi tashkil etilgan. Vazirlik faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasida, “elektron hukumat”ni joriy etishda yagona davlat siyosati amalga

oshirilishini ta'minlash, axborot texnologiyalarini rivojlantirishning jahon darajasidan kelib chiqqan holda milliy axborot-kommunikatsiya tizimini tatbiq etish va rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish, shu jumladan, Internet tarmog'iga keng polosali ulanishni kengaytirish, telefon aloqasi, televide niye va radioeshittirishning raqamli tizimlariga to'liq o'tishni ta'minlash, aloqa va telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni, shuningdek, radiochastotali spektrdan foydalanishni davlat yo'li bilan boshqarish, litsenziyalash va nazorat qilish borasidagi funksiyalarni amalga oshirish;

"Elektron hukumat"ni tatbiq etish, vazirliklar, idoralar, kompaniyalar va uyushmalarning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborotlashtirish va interaktiv davlat xizmatlarini takomillashtirish borasidagi faoliyatini idoralararo muvofiqlashtirish, monitoring qilish, baholash va nazorat qilish bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, davlat axborot resurslari hamda ma'lumot bazalarini shakllantirish, saqlash va foydalanishning yagona tizimini vujudga keltirish, idoralararo axborot tizimlarini yaratish va boshqarish;

Internet tarmog'inining milliy segmenti yanada shakllantirilishini ta'minlash, mamlakatimizning turli yo'nalishlardagi zamonaviy veb-resurslarini, shu jumladan, aholining, xususan, yosh avlodning axborotga bo'lgan va intellektual talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadida tarmoq resurslarini rivojlantirish uchun zarur texnik va qulay shart-sharoitlarni yaratish; raqobatdosh dasturiy mahsulotlarning mamlakatimizda ishlab chiqarilishini va ichki bozorini hamda ularga ko'rsatiladigan xizmatlarni rivojlantirishga ko'maklashish va uning muvofiqlashtirilishini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida va iste'molchilarda zamonaviy dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va axborot resurslarini joriy etish;

Axborot xavfsizligini ta'minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilish bo'yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish; zamonaviy kommunikatsiya vositalari sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish va tatbiq etish, axborot xavfsizligini ta'minlash va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarining boshqa sohalarida shunday ishlarni tashkil etish; aloqa, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ustuvor loyihalarni amalga oshirish, radiochastotalik spektrdan samarali foydalanish uchun hamda vazirlik faoliyati doirasiga kiruvchi boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha xorijiy investitsiyalarni jalg etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar texnologiyalari davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2012-yil 23 oktabrdagi PQ-1836-son qaroriga muvofiq, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish jarayonlarida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining rolini oshirish va ishtiroki ko‘lamlarini kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-dekabrda «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasini yanada rivojlantirish va uning mablag‘laridan samarali foydalanish to‘g‘risida»gi qarori imzolangan.

Mazkur qaror bilan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi boshqaruvi apparati tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi Kengashi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlangan. Quyidagilar Jamg‘armaning vazifalari va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

a) ushbu Nizomning 4-bandida ko‘rsatilgan manbalardan tushgan mablag‘larni jamlash;

b) Jamg‘arma hisob raqamlarida jamlangan mablag‘lardan:

- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimlarini joriy etishni, ma’lumotlar uzatishning idoralararo tarmoqlarini tashkil etishni, «Elektron Hukumat» tizimlarini va davlat buyurtmasi doirasida amalga oshiriladigan qidirish tizimlarining milliy segmentini shakllantirish bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borishni;

- xalqaro standartlarga muvofiq va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda aloqa, televideniye va radioeshittirish sohasida telekommunikatsiya tarmoqlari va tizimlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilishni;

Internet tarmog‘ining milliy segmentini shakllantirishni, turli yo‘nalishdagi zamonaviy mahalliy axborot resurslarini, shu jumladan aholining, ayniqsa yosh avlodning axborotga bo‘lgan va intellektual ehtiyojlarini qondirish uchun tarmoq resurslarini shakllantirishni;

- ✚ davlat axborot resurslari va ma’lumotlar bazasini shakllantirish, saqlash va ulardan foydalanishning yagona tizimini ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borishni;
- ✚ ma’lumotlar uzatish tarmoqlarini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirishni, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu sohada loyihalarni tayyorlash uchun tadqiqotlar o‘tkazishni;
- ✚ aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, respublikaning butun hududida ma’lumotlarni uzatish milliy va xalqaro axborot tarmoqlaridan yuqori tezlikda foydalanish sohasida xizmatlarning yangi turlarini ishlab chiqish va joriy etishni;
- ✚ aloqa, kompyuter va tarmoqli texnologiyalar, dasturlashtirish va elektron ma’lumotlar bazasini yaratish sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishni, shuningdek kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan o‘qitish tizimini;

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi apparati faoliyatini xodimlarni qo‘srimcha ravishda moddiy rag‘batlantirish va moddiy-texnika bazani mustahkamlash yuzasidan; (O‘zR VM 27.06.2015-y. 171-son Qarori tahriridagi xatboshi)

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimiga kiruvchi telekommunikatsiya va axborot tizimlari ustidan boshqarish va nazorat qilish organlarini, shuningdek aloqa obyektlari davlat kadastri xizmatlari, elektron raqamli imzolar kalitlarini ro‘yxatdan o‘tkazish markazlari faoliyatini, terminologiya va lug‘atlarni, standartlashtirish bo‘yicha bazaviy tashkilotlarni va

bazaviy metrologik xizmatni, shuningdek axborotlashtirishni joriy etish va rivojlantirish bo'yicha mustaqil daromad manbaiga ega bo'lмаган xizmatlarni rivojlantirishga ko'maklashishni; (O'zR VM 27.06.2015-y. 171-son Qarori tahriridagi xatboshi)

Respublika axborot-kutubxona markazining faoliyatini;

- ✚ axborot va pochta xavfsizligi, telekommunikatsiya tarmoqlari tizimini, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilish texnologiyalarini joriy etishni, zamonaviy talablar va standartlarga muvofiq axborot va pochta xavfsizligini ta'minlash bo'yicha texnik infratuzilmani rivojlantirishni;
- ✚ tanlov asosida tanlab olinadigan aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasini rekonstruksiya qilish, ularni rivojlantirish va kompyuterlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni;
- ✚ efirga ruxsat berilmagan chiqishlarning va davlat tuzilmalari radio vositalariga to'sqinlik qilishning oldini olish maqsadida radio chastota spektridan foydalanish ustidan davlat nazorati uchun maxsus nazorat-o'lchov texnikasi sotib olish xarajatlarini qisman qoplashni;
- ✚ axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sifatli vositalarini va mahalliy dasturiy mahsulotlarni, shu jumladan, ijtimoiy-ko'ngilochar va ta'lim yo'nalishidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni;
- ✚ qishloq joylarda xizmatlar ko'rsatuvchi aloqa, radioeshittirish va televide niye tashkilotlariga vaqtincha moliyaviy yordam berishni;
- ✚ O'zbekiston Respublikasining qishloqlari va chekka aholi punktlarining telekommunikatsiya infratuzilmasini maqsadli qayta jihozlash va yanada rivojlantirishni;
- ✚ operatorlar va provayderlar tomonidan ko'rsatiladigan universal aloqa xizmatlarini rivojlantirishni;
- ✚ dasturlashtirish, tizimli ma'muriyatchilik, kompyuter dizayni, animatsiyalar va axborot texnologiyalarining boshqa yo'nalishlari bo'yicha tanlovlар, musobaqalar va bellashuvlar o'tkazish yo'li bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida mutaxassislar faoliyatini rag'batlantirishni;

Litsenziyalar berilganligi, abonent raqamidan foydalanganlik uchun mobil aloqa operatorlari tomonidan to'lanadigan to'lov, aloqa sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardan olingan jarima sanksiyalarining undirishdan

tushgan mablag‘lar summasining 5 foizi miqdorida davlat boji O‘zbekiston Milliy kutubxonasi huzuridagi byudjetdan tashqari Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasiga ajratilishi bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishda foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajaboev Shahboz Shodiyevich, & Raxmatov Ozodbek Aktam O'g'li. (2024). Information Technology is Now Used Everywhere . *Miasto Przyszłości*, 44, 114–121. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2372>
2. Shodiyevich R. S., Sardor A. MICROSOFT POWER POINT IN THE FIELD OF TOURISM PLACE //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2023. – T. 3. – №. 12. – C. 202-210.
3. Rajaboyev S. XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH TENDENSIYASI //Евразийский журнал предпринимательства и педагогики. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 64-69.
4. Rajaboyev, S. (2023). Ta’limni axborotlashtirish sharoitida web-dizayn kursini flipgrid dasturining imkoniyatlaridan foydalanish
5. Shakhboz R. USING MODERN TECHNOLOGIES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING COMPUTER SCIENCE BASED ON DISTANCE EDUCATION //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №. 7.
6. Shodiyevich, R. S., Shodiyevich, R. S., & o'g'liU. S. B. (2023). ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 4(6), 80-84. Retrieved from <https://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS/article/view/475>
7. To‘lqinjanovna T. N., Shodiyevich R. S. Word Formation by Affixation //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 217-222.
8. Shahboz R., Sayidaxon T., Sheroz R. IQTISODIY FANLARNI O ‘QITISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 518-520.

9. Rajaboev Sh.Sh. USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE ACCOUNTING OF ENTERPRISES // Теория и практика современной науки. 2023. №10 (100). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-information-and-communication-technologies-in-the-accounting-of-enterprises> (дата обращения: 25.02.2024).
- 10.Umidov D. U., Sh R. S. APPLICATION OF PROGRAMS USED IN THE FIELD OF ACCOUNTING IN STARTUPS //ББК 65.29: 74.48 я431 П711. – 2023. – С. 31.